

## BUGUNGI ZAMONAVIY JAMIYAT HAYOTIDA TARBIYANING MUHIM ASOSLARI

**Mamatova Dilnoza Olimjonovna**

*Toshkent viloyati Olmaliq shahar 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf  
o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi zamonaviy jamiyat hayotida tarbiyaning muhim asoslari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Tarbiya, jamiyat, nazariya, yurt, ta'lim, kelajak, ota ona, ustoz.*

“Agar mendan “sizni nima qiynayapti?”- deb so‘rasangiz farzandlarimizning ta‘lim va tarbiyasi deb javob beraman”- deydi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Bu fikrlari mustaqil yurtimizni, ertamizning egalariga ta‘lim- tarbiya berishdek ulkan ma‘suliyat, davlat rahbari, mutassadi tashkilotlar, har bir oila, jamiyat a‘zolari oldidagi ulkan ish sifatida qarashimizni taqozo etmoqda. Insoniyatning ko‘payishi tabiat qonuni bo‘lgani kabi bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota-onaning bola tarbiyasi uchun javobgarligi ham jamiyatimizning qonunidir. Azaldan bola tarbiyasi bilan yoshligidan, asosan, ona shug‘ullangan, otaning asosiy vazifasi oilani boqish bo‘lib, uyda bo‘lgan vaqtda bolani nazorat qilib borishdan iborat edi. Bugungi oilaviy tarbiya, “Milliy va zamonaviy o‘zbek bolasining siymosi qanday bo‘lishi kerak?” degan savolga javob talab qilmoqda. Bugungi bola o‘tgan asr bolasidan keskin farq qiladi, o‘zbek o‘g‘il-qizlari zamonaviy komil inson siymosiga ega bo‘lmog‘i lozim. Tabiiyki, bu jarayonda oilaviy tarbiyaning o‘rni beqiyos. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o‘z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o‘z ta‘sirini o‘tkazib turadi. Ibn Sino ta‘biricha, “ota-ona bola tarbiyasini unga ism qo‘yishdek oliyanob vazifadan boshlaydi”. Hozirgi kunda oilaviy munosabatlarda ota-onalarning farzandlar bilantoliq va etarlicha munosabatga kirisha olmasligini kuzatamiz. Oilaning boshi bo‘lgan erlarning ba‘zilari ko‘chadagi ulfatchilikdan, ish yuzasidagi safarlardan ortib, o‘z farzandlarini moddiy tomondan ta‘minlashlari mumkin, lekin ularni ma‘naviy jihatdan tarbiyalashga, ruhiy madad bo‘lishga ularning qiziqish va intilishlarini, ularni qiynayotgan muammolar nimalardan iborat ekanligini bilishga, o‘rganishga vaqt ajrata olmaydilar, vaqt topsalar ular bilan gaplashishga hafsala qilmaydilar.

Ba‘zida, onalarda ham shunday holat kuzatiladi ba‘zi onalar tungi smenalarda tuni bilan ishlab iloji bo‘lsa kunduzi uxlashadi, kechki ovqatni birga eydi bo‘lmasa yo‘q yana ishga ketadi yoki ishxonadagi, qarindoshlar orasidagi yig‘in o‘tirishga ketishi uyda qolgan taqdirda ham uy yumushlari bilan band bo‘lishlarishga yoki telegram, feyzbukda o‘tirish bilan vaqt o‘tkazadilar. Oiladagi shaxslararo mehruhabbatga asoslangan o‘zaro muloqat deyarli amalga oshmaydi natijada bola o‘zini tushunadigan unga dalda bo‘ladigan “do‘stlarni” ko‘chadagi izlashga majbur bo‘ladi. Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo‘tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish

va hafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat muhit va tarbiya ta'sirini birdek muhim ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Axloqiylik yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va shakllanadi.

Bolaning jismonan sog'lom, ahloqan pok, mehnatsevar, madaniyatli intellektual salohiyatli bo'lib o'sishdan jamiyatimiz ham manfaatdordir. O'quv tarbiyaviy muassasalarning tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilishidan qat'iy nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladi. Bog'cha va maktablar ta'lim bersa va tarbiyalasa, ota-onalar faqat tarbiyalabgina qolmay, ular bilan birga yashaydilar ham. Ota-onalarning farzand uchun fidoyi bo'lishligi o'zbek millatiga xos bo'lgan ajoyib fazilatdir. XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Xos Xojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli-xushli bo'lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning ma'suliyatiga alohida e'tibor beradi. "Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa, deb yozadi u, unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa bolada gunoh yo'q barcha jafo otaning o'zida; o'g'ilqizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarinazorat qilib, turli xunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach, o'g'il-qizim bor deb sevinadi; o'g'il-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin".

Demak, otalar farzandini faqat moddiy tomondangina ta'minlab "Men o'z vazifamni kerak bo'lsa ortig'i bilan bajarib qo'ydim" deb o'ylamasdan farzandining ruhiyatidagi o'zgarishlarni ham ilg'ay olishlari zarur. "Agar oila boshlig'i tajribasiz bo'lsa, u o'z a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi, oxir-oqibat u yaxshi ijobiy natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya nafaqat ushbu oila, balki qo'shnilarga, mahalla-ko'ygga ham yomon ta'sir qilishi mumkin. Oiladagi bola tarbiyasi ota-onaning jamiyatda tutgan mavqeyidan qat'i nazar, ularniig birlamchi vazifasidir"- deb hisoblaydi Ibn Sino. "Ota-ona davlat boshlig'imi yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola tarbiyasi borasida mas'uldir. Davlat boshliqlari, rahbarlar bola tarbiyasi xususida barchaga ibrat bo'lmoqlari lozim"-deb ko'rsatar ekan ota-onaning ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar ularning birinchi galdagi vazifalari bola tarbiyasi ekanligini ta'kidlab ko'rsatadi.

Ibn Sinoning bola tarbiyasi, tarbiya psixologiyasi va rahbarlarga qo'ygan ushbu talablari o'sha davrda qanchalik taraqqiyparvar va zarur bo'lsa, bizning bugungi kunimizda ham u o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Uning fikricha, tarbiyachi, ya'ni ota-ona "nafaqat so'z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim" ekanligini ta'kidlaydi. Demak, ota-ona bola tarbiyasida nafaqat so'zdan balki amaliy faoliyatda ham o'zi o'rnak bo'lish orqali tarbiyalasa maqsadga muvofiq bo'lishini mutafakkirimiz ta'kidlab o'tganlar. Hozirgi kunda yurtimizda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy sohalardagi qo'lga kiritilayotgan yutuqlarimiz, yurtboshimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan keng ko'lamli sharoitlar,

bularning barchasi bizning ertamiz bo'lgan yoshlarni tarbiyasiga e'tiborli bo'lishimizni talab etadi. Hozirgi kunda dunyo xalqlarini sarosimaga solib turgan COVID19 pandemiyasi yoshlar ruxiyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatayotgan bir pallada, farzandlaringizda uni eng olish immunitetini siz o'z oilangizda shakillantirishga harakat qiling. Buning uchun siz farzandingizni kitobga oshno qilishga harakat qilib ko'ring, o'ylaymanki albatta samarali natijaga ega bo'lasiz. Hurmatli ota-onalar sizlarga shuni aytmoqchimanki o'smir yoshidagi farzandlaringiz bilan uni shaxsini taxqirlovchi so'zlardan iloji boricha foydalanmasdan, uning ruhiyatiga yaqin bo'lgan o'rtoqlarcha munosabat usulidan foydalaning. Agar kerak bo'lsa sizning farzandingiz yoshidalik vaqtingizda qilgan orzularingiz ularni qanchasi ushaldi, qanchasi sarob bo'lib qoldi, qilgan xato kamchiliklaringizni asta qog'ozga o'rab so'zlab berish orqali farzandingiz ruhiyatiga kirib borishingiz mumkin bo'ladi.

Bunda siz o'zingizni juda ko'klarga ko'tarib maqtab yubormang. Farzandingiz bilan iloji boricha bir kunda bir -bir yarim soat turli mavzularda suhbatlashib turish uni sizga bo'lgan mehr – muhabbatini oshishiga o'zini qiynayotgan muammolari bilan o'rtoqlashishiga yo'l ochadi. Siz sabrli bo'ling u sizdan nimanidir yashirayotganligini sezsangiz u nima ekanini talab qilib aytib berishiga majbur qilmang. Bu o'rinda sizning yoshligingizda kechgan qiziq voqealarni aytib berish, o'qigan kitoblaringizdagi qiziq voqealar haqida qisman so'zlab berish orqali uning sirlarini bilib olishingiz mumkin bo'ladi. Siz farzandingizga uni yaxshi ko'rishingizni, kelajakda siz uni qanday inson bo'lishini orzu qilishingiz haqida vaqti -vaqti bilan eslatib turishingiz, unda ota-ona oldidagi mas'luliyatni sezish hissini tarbiyalanishiga turtki bo'ladi. Xulosa qiladigan bo'lsak tarbiyada- shaxsiy namuna muhim o'rin tutadi, xalqimiz bekorga "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bekorga aytmagan.

Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'ektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»<sup>20</sup>. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xussiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'lik.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning asosiy g'oyasi respublikaning riojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'qrisida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlari, chunonchi, «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'likligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi. Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish muhimdir. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi. Umumiy pedagogika jarayonida tarbiya muhim o'rin tutadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu

borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoev SH.M. 22.09.2019 videoselektrdagi nutqi.
2. Abu Rayxon Beruniy. Mineralogiya. –T.,2009. 3. YUsuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.,2008.

3hozir.org

4fayllar.org

5uz.denemetr.com